


## Oriental Journal of Philology



### ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:  
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



## BILINGUALISM AND THE INFLUENCE OF DIALECTS ON EACH OTHER IN THE DIALECTS OF SAMARKAND

**Zilola R. Tillabayeva**

*Lecturer, researcher*

*Samarkand state institute of foreign languages academic lyceum*

*Samarkand, Uzbekistan*

*E-mail: [tillabayeva87@bk.ru](mailto:tillabayeva87@bk.ru)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** city of Samarkand, dialect, literary language, tajik dialect, uzbek language, bilingualism, “Muqaddimat ul-adab”, “Devoni lug‘otit turk”, lexical units, comparative, descriptive aspect, “mixed” languages.

**Received:** 06.10.22

**Accepted:** 08.10.22

**Published:** 10.10.22

**Abstract:** This article discusses the relationship of bilingualism in the uzbek dialects of the city of Samarkand. The close relationship between the words of the studied dialect and tajik dialects is revealed on the basis of examples. In it, the words characteristic of the tajik dialects, which have been assimilated into the uzbek dialects of this region, are divided into lexical groups and analyzed. Their importance in enriching uzbek dialectology is shown on the basis of concrete examples.

## SAMARQAND SHAHRI O‘ZBEK SHEVALARIDA IKKI TILLILIK VA SHEVALARNING BIR-BIRIGA TA’SIRI

**Zilola R. Tillabayeva**

*O‘qituvchi, tadqiqotchi*

*Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi*

*Samarqand, O‘zbekiston*

*E-mail: [tillabayeva87@bk.ru](mailto:tillabayeva87@bk.ru)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Samarqand shahri, sheva, adabiy tili, tojik shevasi, o‘zbek tili, bilingvism, “Muqaddimat ul-adab”, “Devoni lug‘otit turk”, lug‘aviy birliklar, qiyosiy, tavsifiy aspekt, to‘g‘ri tillar, “aralashgan” tillar.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Samarqand shahri o‘zbek shevalaridagi bilingvism munosabatlari haqida fikr yuritilgan. Tadqiq etilayotgan shevadagi so‘zlarning tojik shevalari bilan o‘zaro chambarchas aloqalari misollar asosida ohib berilgan. Unda mazkur hudud o‘zbek shevalariga o‘zlashgan tojik shevalariga xos so‘zlar lug‘aviy guruhlarga bo‘lib, tahlilga tortilgan. Ularning o‘zbek dialektologiyasini

## ДВУЯЗЫЧИЕ И ВЛИЯНИЕ ДИАЛЕКТОВ ДРУГА НА ДРУГА В ГОВОРАХ САМАРКАНДА

**Зилола Р. Тиллабаева**

*Преподаватель, исследователь*

*Самаркандский государственный институт иностранных языков академический лицей  
Самарканда, Узбекистан*

*E-mail: [tillabayeva87@bk.ru](mailto:tillabayeva87@bk.ru)*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** город Самарканда, диалект, литературный язык, таджикский диалект, узбекский язык, двуязычие, “Муқаддимат ул-адаб”, “Девони луготит турк”, лексические единицы, сравнительный, описательный аспект, “смешанный” языки.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются отношения двуязычия в узбекских диалектах города Самарканда. На основе примеров выявляется тесная связь между словами изучаемого диалекта и таджикскими диалектами. В ней слова, характерные для таджикских диалектов, которые ассимилировались в узбекские диалекты этого региона, разбиты на лексические группы и проанализированы. На конкретных примерах показано их значение в обогащении узбекской диалектологии.

### KIRISH

Hozirgi kunda jahon tilshunosligida tillar o'rtasidagi o'zaro aloqalar bo'yicha M.Ruhlen, J.Nichols, L.Edzard, Georg, Stefan, P.A.Michalove, A.M.Ramer, P.J.Sidwell, A.Francois, L.V.Lier, G.Doerfer, A.Potebnya, N.M.Janpeisova, L.Ayupova, R.M.Gaysina, A.Girutskiy, M.Mixaylov kabi zahmatkash olimlar maxsus tadqiqot ishlarini olib borishgan.

O'rta Osiyo hududida esa ayniqsa o'zbek va tojik tillarining bilingvism munosabatlarini o'rganish Mahmud Zamashshariy, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy kabi buyuk ajodolarimiz tomonidan amalga oshirilgan. Ular o'z ishlarida mazkur tillarga oid birliklarni qiyosiy-tarixiy va chog'ishtirma usullarda tahlil qilib, ushbu yo'naliishlarga asos solishgan.

### ASOSIY QISM

O'zbek va tojik tillarining o'zaro aloqasi uzoq tarixga ega. Mazkur tildan o'zbek tiliga, shuningdek, qarluq lahjasiga juda ko'p so'zlar o'zlashgan. Shuning uchun ham bilingvism (ikki tillilik) hodisasi ro'y bergan. Bu holat ayniqsa Buxoro, Samarqand, Xo'jand shevalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Professor A.K.Borovkov o'z tadqiqotlarida o'zbek-tojik tillarining chambarchas aloqalariga alohida to'xtalib o'tgan.

O'zbekistonda tillararo muloqtlarni o'rganish XX asr boshlaridan A.Fitrat, M.Behbudiy, Ye.D.Polivanov, A.K.Borovkov, U.Tursunov, B.O'rinooyev, R.Doniyorov, K.Yusupov,

D.Ishondadayev, H.G‘ulomov, O.Azizov, T.Rahmonov, M.Mirzayev, L.Nazarova, N.G‘ulomova, M.Zokirov, S.Zokirova, Sh.Jo‘rayev, I.Rasulova kabi olimlar; Tojikiston davlatida esa R.Rajabova, B.Djabborov, R.Xidirov kabi qator olimlar tomonidan chuqur va atloflicha tadqiq qilingan.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ayniqsa o‘zbek va tojik millatiga mansub aholi o‘rtasidagi aloqalar juda qadimga borib taqaladiki, miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Ahmoniyalar hamda Qang‘ davlatida miloddan avvalgi III-II asrlarga mansubligi qayd etilgan. [2, 34-bet] Qolaversa, tojikistonlik olim B.G‘afurov o‘z ishida milodiy VI asrdan e’tiboran mazkur ikki qardosh millat o‘rtasida bilingvizm holati yanada kuchayganligini qayd etib o‘tadi. [5, 110-bet]

Jumladan, buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshg‘ariy ham o‘zining XI asrda yaratgan “Devoni lug‘otit turk” asari turkiy tillarning fonetik, leksik, grammatic xususiyatlarini qipchoq, o‘g‘uz, turk shevalari asosida qiyosiy usulda yoritib bergen. Qomusiy olim o‘ziga ma’lum bo‘lgan tillarni 2 guruhga bo‘lgan:

1) sof aralashmagan, to‘g‘ri tillar; 2) aralashgan, noto‘g‘ri, buzilgan tillar. Uning fikricha, “aralashgan” tillar, ko‘pincha, sug‘dcha yoki forscha tillar bilan aloqaga kirishgan, asosan, bir necha shaharlarda qo‘llanadigan tildir. [4, 65-bet] Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, u mazkur qomusiy asarida turkiy va eroniy (sug‘d, fors) tillarning o‘zaro ta’sirini nazarda tutgan.

Mahmud Zamaxshariy ham “Muqaddimat ul-adab” asarida arab tiliga xos bo‘lgan so‘z va iboralarni to‘plib, ularning ma’nolarini, kelib chiqish tarixini atroflicha sharhlangan. Unda 11 ta fors, chig‘atoy, mo‘g‘ul, turk tillariga oid ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, chig‘atoy, mo‘g‘ul, turk tillariga doir so‘zlar qiyoslangan.

Yana bir tilshunosligimizga doir mashhur asarlardan biri, shubhasiz, Alisher Navoiyning “Muhokamt-ul lug‘atayn” asari bo‘lib, unda turkiy-o‘zbekcha so‘zlar fors-tojik tiliga mansub so‘zlar bilan qiyoslanib misollar yordamida izohlangan. Turkiy tilning lug‘at boyligi fors-tojik tilidan salmoqorroq ekanligiga alohida e’tibor berilgan. Jumladan, turkiy tilga doir boshqa tillarda muqobili bo‘lmagan 100 ta fe’lni keltirib, shunday sharhlaydi: “... va turk alfozida bu nav lafz ko‘p topilur. Masalan, bu mazkur bo‘lg‘on yuz lafzdin bir nechag‘a mashg‘ulliq qilib sobit qilali, to shams muqobalada ilzom bo‘lsunki, o‘zgalarni munga qiyos qilsun”. [1, 109-bet]

Mashhur samarqandlik ijodkor, jadid Mahmudxo‘ja Behbudi ham “Til masalasi” nomli maqolasida keltirilgan qimmatli fikrlari hozirgacha o‘zining dolzarbligini yo‘qotgan emas: “... kelar zamon hozirlanayluk o‘tgan zamon uchun emas. ... Biz turkistoniylargacha turkiy, arabi, forsiy va rusiy bilmoq lozimdu. Turkiy, ya’ni o‘zbekini sababi shulki, Turkiston aholisining aksari o‘zbeki so‘zlashur. Forsiy bo‘lsa, madrasa va udabo tilidur. Barcha madrasalarga she’riy va diniy kitoblar arabi... bu qoida, ya’ni dars kitobi arabi, muallim turkiy, tahrir-u tarjimonи forsiyligi

hiyla ajibdur. Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriyidur”. [3, 122-bet] Mazkur maqolani o‘qir ekanmiz, Behbudiy nutqida aynan Samarqand shahri o‘zbek shevalariga doir unsurlarni kuzatish mumkin: o‘zbeki so‘zi tarkibidagi *-i* qo‘shimchasi adabiy tildagi *-cha* sifat yasovchi qo‘shimchasining shevadagi muqobili hisoblanadi.

O‘tgan asar boshida Vatan ozodligi yo‘lida kurashgan yana bir ilg‘or samarqandlik ijodkorladan biri Hoji Muindir. Uning turli mazmundagi maqolalari, hajviyalarini, dramalarini tahlil qilishimiz jarayonida aynan samarqandlik ijodkor ekanligiga ishora qiluvchi o‘zgacha shevasi e’tiborimizni tortdi. Yuqorida keltingan ma’lumotlarimizdan shu ma’lum bo‘ladiki, ikki va ko‘p tillilik hodisasi ildizlari qadimga borib taqaladi va bu zullisonayn ijodkorlar asarlarida o‘ziga xoslik kasb etgan.

Samarqand shahri hududidagi aholi nutqiga doir materiallardan shu ma’lum bo‘ldiki, ikki tillilikning quyidagi turlari tarqagan: o‘zbek-rus, o‘zbek-tojik, rus-koreys, o‘zbek-qozoq, o‘zbek-turkman, o‘zbek-qirg‘iz kabi bilingvism hodisasi.

Mazkur hududdagi bilingvism hodisasini yanada aniq tushunish uchun tahvilga tortmoqchi bo‘lgan so‘zlar misolida ko‘rib chiqishni ma’qul deb bildik.

**Oziq-ovqatga doir so‘zlar:** palov// *āšpäläv*, ugra// *ogrā*, halim// *hälisä*, chuchvara// *bäräk*, suzma// *čäkkä*, qatiq// *žiryāt*, qatlama// *qällämä*, shavla// *šolä* kabi.

**Xarakter-xususiyatga xos so‘zlar:** muttaham// *hännät*, sho‘x// *häñi*, qo‘pol, qo‘rs// *hoqqi*, ayyor//*märbäz*, anqov//*gärän*, goläx, jaljalkash// *žänärä*, ustomon//*bälä* kabilar.

**Qarindoshlikni ifodalovchi so‘zlar:** ota// *dädä*, ona// *biji*, *äjä*, *äjä*, buvi// *änä*, totä, *äkä*, uka// ukamlä, *dädär*, opa// *äjti*, *ätäb*, tog‘a// *täyä*, amaki// ämäk, pochcha// *päččä*, xola// *xälämlä*, qaynona// *bijimlä*, kuyov// *dämmäd*, *kujäv* kabilar.

Kuzatuvimiz jarayonida shunga guvoh bo‘ldikki, genetik jihatdan turli oilalarga mansub bo‘lsa-da, o‘zbek va tojik tilida birday gapiruvchi aholini ikki tilli bir xalq sifatida baholash ham mumkin. Aholi nutqidan to‘plangan materialni tahlil qilarkanmiz, fors-tojikcha *-bon*, *-paz*, *-furush*, *-do‘z*, *-gar*, *-kor*, *-xo‘r*, *-poy* kabi qo‘shimchalar; o‘zbek tiliga xos *-chi*, *-dosh*, *-i*, *-ma*, *-chi*, mish kabi so‘z yasovchilar bilan hosil qilingan sodda yasama so‘zlar faolligini kuzatishimiz mumkin: *o‘zbeki*, *toshkandi*, *maydacha*, *oshpaz*, *zargar*, *qandolatpaz*, *bachapoy* kabilar.

Sintaktik yo‘l bilan hosil qilingan *to‘g‘rama mantu*, *dast bermoq*, *dil bermoq*, *arra qilmoq* kabi kalkalash orqali vujudga kelgan so‘zlar qatorida *ro‘yi joga*, *dili nojo ‘sham*, *baloyi bad*, *dili bedilon* kabi izofali birikmalar ham faol iste’moldaligini ko‘rishimiz mumkin.

Biz o‘rganayotgan hudud aholisi leksikonida *fe‘l+ kadan* (uchräši kädän, išāni kädän, tikiš kädän), “ *ot+ kadan* ” (avqät kädän, ujin kädän) kabi qolipli birliklar ko‘p uchrashi bilan ahamiyatga ega: *Tikiš kadan bilan hammasi hal bomijdi*. *Ujin kadan degani ziyofat tamom degani*

*emas, piči o'tiriňla. Qizim dommod bilan uchrashi kadam, ma'qul,- deyopti.* Bu esa alohida tadqiqotni talab etadi.

Aholi tilida semantik yo‘l bilan yasalgan so‘zlar hech qanday tarjimasiz qo‘llaniladi: *isliqi*.

1) ushbu leksika o‘tovsozlikda chang‘aroqning ustini yopishda qo‘llaniladigan xom-ashyo sanaladi. 2) shevada iflos, kir mazmunini ifodalaydi. Väj biräm hävlisi isliqi ekān.

*Harif* so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, adabiy tilda sherik, hamkor ma’nolarini ifodalaydi. Samarqand shahri o‘zbek shevalarida esa go‘l, laqma, befahm-farosatsiz kishilarga nisbatan qo‘llanilishini kuzatdik. Härif bačča mani tuširmāqči bollimi?

Mazkur tadqiqotimiz Samarqand shahri hududida yashovchi o‘zbek va tojik tillarini aralashtirib so‘zlovchi bilingvizm hodisasiga bevosita aloqador bo‘lgani uchun qiyosiy-tipologik ishlar uchun qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qilishiga ishonamiz.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, ikki tillilik, ko‘p tillilik hodisalari dolzarb masalalardan hisoblanib, O‘zbekistonda o‘zbek-rus, o‘zbek-tojik, o‘zbek-qirg‘iz, o‘zbek-turkman, o‘zbek-tatar, o‘zbek-qozoq, o‘zbek-qoraqalpoq kabi bilingvizm holatlari hozirgacha deyarli chuqur va atroflicha o‘rganilgani yo‘q. Zero, o‘zbek va tojik qardosh millati vakillari nutqiga xos boy materiallarni o‘zaro qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алишер Навоий. Мұхокамат-ул луғатайн. –Тошкент: Тафаккур, 2014. - 109 б.
2. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. –34, 64, 164-183, 228, 262 б.
3. Беҳбудий М. Танланган асарлар. –Тошкент: Маърифат, 1999. –122 б.
4. Маҳмуд Кошғарий. “Девону-луғотит турқ, 1- том. –Тошкент: Фан, 1960. - 65 б.
5. Гафуров Б. Г. История таджикского народа. Том II. – Москва, 1984. –110 б.